

V. XIZMATLAR



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi

	<i>Miqdori, (mlrd.so‘m)</i>	<i>O‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
--	---------------------------------	-------------------------------------	---------------------------------------


Xizmatlar – jami	7 984,0	115,7	100,0
-------------------------	----------------	--------------	--------------

shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:

aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	404,8	125,0	5,1
moliyaviy xizmatlar	2 111,5	134,6	26,4
transport xizmatlari	1 164,7	103,4	14,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 137,0	102,9	14,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	243,5	108,6	3,1
savdo xizmatlari	2 342,5	110,2	29,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	148,8	106,4	1,9
ta’lim sohasidagi xizmatlar	424,7	116,2	5,3
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	152,4	101,3	1,9
ijara xizmatlari	186,4	131,1	2,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	200,5	105,3	2,5
shaxsiy xizmatlar	221,3	108,9	2,8
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115,5	109,8	1,4
boshqa xizmatlar	267,4	103,8	3,4


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,3 %), moliyaviy xizmatlar (26,4 %), transport xizmatlari (14,6 %) va ta’lim sohasidagi xizmatlari (5,3 %) ni tashkil etadi.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,4 %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (1,9 %) hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,9 %) egalladi.






Xizmatlar tarkibida mulkchilik shakllari ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



■ 2021 yil yanvar-dekabr ■ 2022 yil yanvar-dekabr

Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (29,3 %) tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 82,2 foiz, ulgurji savdo xizmatlari 9,6 foiz va avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 8,2 foizni tashkil etdi.





**Savdo xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2022 yil yanvar-dekabr)**

	Mlrd.so'm	2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da
--	-----------	---	--

Jizzax viloyati	2 342,5	110,2	100,0
------------------------	----------------	--------------	--------------

shahar:

Jizzax	498,0	114,1	21,3
--------	-------	-------	------

tumanlar:


Arnasoy	67,4	102,0	2,9
Baxmal	238,5	118,8	10,2
G'allaorol	322,0	109,3	13,7
Sharof Rashidov	259,8	110,4	11,1
Do'stlik	130,5	120,0	5,6
Zomin	263,5	107,4	11,2
Zarbdor	115,1	102,7	4,9
Zafarobod	65,9	101,0	2,8
Mirzacho'l	95,0	104,6	4,0
Paxtakor	113,8	109,6	4,9
Forish	140,7	103,8	6,0
Yangiobod	32,3	101,7	1,4

Savdo xizmatlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (120,0 %) va Baxmal (118,8 %) tumanlarida, Jizzax shahrida (114,1 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lмаган о'sish sur'atlari esa, Zafarobod (101,0 %), Yangiobod (101,7 %) va Arnasoy (102,0 %) tumanlarida qayd etildi.



**Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**




Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (21,3 %), G'allaorol (13,7 %), Zomin (11,2 %), Sharof Rashidov (11,1 %) va Baxmal (10,2 %) tumanlari hisoblanadi.

Uncha yuqori ulushga ega bo'lmagan hududlar esa, Yangiobod (1,4 %), Zafarobod (2,8 %), Arnasoy (2,9 %) va Mirzacho'l (4,0 %) tumanlaridir.



**Transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi (14,6 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmining oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 100,0 foiz bilan asosiy ustunlikka ega.



**Transport xizmatlari hajmi va o'sish darajasining
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2022 yil yanvar-dekabr)**

	Mlrd.so'mda	2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan foizda	jam'i xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foiz
--	-------------	---	--

Jizzax viloyati	1 164,7	103,4	100,0
------------------------	----------------	--------------	--------------

shahar:

Jizzax	198,0	102,6	17,0
--------	-------	-------	------

tumanlar:


Arnasoy	9,5	103,1	0,8
Baxmal	110,2	99,0	9,5
G'allaorol	95,3	101,1	8,2
Sharof Rashidov	431,6	104,7	37,1
Do'stlik	42,7	108,8	3,7
Zomin	107,2	104,2	9,2
Zarbdor	55,7	102,6	4,8
Zafarobod	11,0	97,9	0,9
Mirzacho'l	19,0	106,8	1,6
Paxtakor	38,7	105,6	3,3
Forish	35,3	101,8	3,0
Yangiobod	10,5	105,0	0,9

Tumanlar o'rtaida transport xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (108,8 %), Mirzacho'l (106,8 %), Paxtakor (105,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Baxmal (99,0 %) va G'allaorol (101,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (37,1 %), Jizzax shahri (17,0 %), Baxmal (9,5 %), Zomin (9,2 %) va G'allaorol (8,2 %) tumanlari qayd etildi.


Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar Internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtida masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rinn tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 404,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2021 yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 125,0 foizni tashkil etdi.



**Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**




Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati (125,0 %) qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (84,9 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'l dosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo‘ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.


Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagи xizmatlarning paydo bo‘lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta’minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo‘sishchа investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug‘urta tashkilotlariga ko‘rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2022 yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 2 111,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘sish sur’ati 134,6 foizni tashkil etdi.




Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati dinamikasi, % da (2022 yil yanvar-dekabr)





**Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lalmini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (95,2 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta xizmatlarining ulushi 3,3 foizni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,5 foizni tashkil etdi.



**Bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atining
hududlar kesimidagi holati**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabriga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabriga nisbatan foizda</i>
Jizzax viloyati	7 984,0	115,7	100,0	5 470,4	113,1

shahar:

Jizzax	3 325,5	118,9	41,7	17 567,1	116,0
--------	---------	-------	------	----------	-------

tumanlar:

Arnasoy	149,9	112,2	1,9	3 143,3	110,4
Baxmal	510,5	112,6	6,4	3 095,7	110,1
G'allaorol	662,8	115,1	8,3	3 662,1	112,6
Sharof Rashidov	1057,7	112,0	13,2	4 526,0	109,1
Do'stlik	282,5	120,3	3,5	4 135,5	118,2
Zomin	653,6	113,6	8,2	3 771,4	110,8
Zarbdor	292,6	112,3	3,7	3 198,1	109,6
Zafarobod	140,1	111,8	1,7	2 688,3	109,7
Mirzacho'l	221,3	114,6	2,8	4 098,8	112,7
Paxtakor	263,5	115,7	3,3	3 361,0	113,0
Forish	346,1	111,6	4,3	3 601,6	109,9
Yangiobod	77,9	108,4	1,0	2 668,5	107,0

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (41,7 %), Sharof Rashidov (13,2 %) va G'allaorol (8,3 %) tumanlarda kuzatildi.



**Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy
hajmida hududlarning ulushi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (1,0 %), Zafarobod (1,7 %) va Arnasoy (1,9 %) tumanlari qayd etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (17 567,1 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0 foizni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar
bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (2 668,5 ming so'm), Zafarobod (2 688,3 ming so'm) va Baxmal (3 095,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.



2021 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 108,6 foizni tashkil etdi, hajmi esa 52,3 mld. so'mga ko'paydi va 243,5 mld. so'mga yetdi.

Ushbu turdag'i xizmatlarning pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.




**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minalash bo‘yicha xizmatlarning ulushi (88,9 %) tashkil etadi.



**Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning o’sish sur’atlari
(2022 yil yanvar-dekabr)**




Qayd etish joizki, Jizzax shahrida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 5,3 foizini tashkil etib 424,7 mlrd. so'm, ya'niy o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,2 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Jizzax shahrida 117,9 foizga o'sib, bu sohada ytakchilik qilmoqda.



2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati, % da




Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida nisbatan o'sish sur'atlari Do'stlik (113,4 %), Zarbdor (106,1 %) va Sharof Rashidov (106,0 %) tumanlarida kuzatildi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 152,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 foizni tashkil qilib, jami xizmatlardagi ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati G'allaorol (106,9 %), Do'stlik (103,3 %) va Sharof Rashidov (102,9 %) tumanida kuzatildi.



2022 yil yanvar-dekabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlarning hududlar bo‘yicha o‘sish sur’ati, % da



Sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlarning hududlar bo‘yicha sur’atlari solishtirilganida Zafarobod (88,0 %), Zarbdor (92,6 %), Arnasoy (97,1 %), Mirzacho‘l (100,4 %) hamida Forish (100,4 %) tumanlari past sur’atlarda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bunda yuqori sur’atlarini Baxmal (102,4 %), Paxtakor (102,2 %) va Yangiobod (102,0 %) tumanlari misolbda kuzatisimiz mumkin.